



**Qoraqalpoq'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi**




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- YIL
YANVAR-FEVRAL OYLARI**

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug‘urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo‘lganlar soni bo‘yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Info

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1420,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **286,7** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,6 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma’lumotlar


2022- yil yanvar-fevral

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2022- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so‘m	2021- yilga nisbatan o‘sish sur‘ati, % da
Xizmatlar - jami	1420,0	118,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	81,3	114,3
Moliyaviy xizmatlar	311,7	133,3
Transport xizmatlari	384,6	142,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	165,7	103,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	34,0	102,8
Savdo xizmatlari	306,4	103,8
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	35,1	107,3
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	60,5	104,4
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	18,8	105,2
Ijara xizmatlari	28,7	62,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	43,7	108,5
Shaxsiy xizmatlar	55,7	107,2
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,8	101,3
Boshqa xizmatlar	45,7	114,6

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-fevral oylarida bu xizmatlarning ulushi **27,1 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**21,9 %**), savdo xizmatlari (**21,6 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,7 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma’lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Me’morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo‘lmagan o‘shish qayd etildi, ularning ulushi **1,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari umumiy hajmning **23,0 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me’morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko‘rsatgichga ega bo‘lgan – **1,1 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o‘shishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o‘shishi va ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2022- yil yanvar-fevral oylarida yuqori o‘shish transport xizmatlarida (**42,9 %**), moliya xizmatlarida (**33,3 %**), boshqa xizmatlarda (**14,6 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**14,3 %**), kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar (**8,5 %**), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (**7,3 %**) qayd etildi.

Ijara xizmatlari hajmi sezilarli darajada (**37,9 %** ga) pasayishi qayd etildi.

Dastlabki ma’lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘shish sur‘atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida Ijara xizmatlarida yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etilgan – **190,9** %. Transport xizmatlari o‘shish sur‘atlarida pasayish kuzatilgan – **8,8** %.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Info

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,6 %** ni tashkil etib, bu **306,4** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **268,6** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **23,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **77,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **14,7 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,9 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2022- yilning yanvar-fevral oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo ulushi **77,8 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-fevral oylarida)

2022- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **311,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **233,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **21,9** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **20,6** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **77,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **33,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **118,4** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,3 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,0 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-fevral oylarida)

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**



**Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **93,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,5 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,5 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- yil yanvar-fevral

2022- yil yanvar-fevral



Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-fevral

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **95,0 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2021-yil yanvar-fevral

2022-yil yanvar-fevral



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,3 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Info

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblangan **ta‘lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta‘lim sohasidagi xizmatlar

2022- yil yanvar-fevral

104,4 %

O‘tgan yilga
nisbatan o‘shish
sur‘atlari

**60,5
mlrd. so‘m**

Ko‘rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

4,3 %

Umumiy
hajmdagi ulushi

111,5 %

2021- yil yanvar-fevral

**52,9
mlrd. so‘m**

4,7 %

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi **60,5** mlrd. so‘mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,3 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati **104,4 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral


Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Info

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- yil
Yanvar-fevral

2022- yil
Yanvar-fevral



Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m

Xizmatlar jami hajmidagi
ulushi, % da

O‘sish sur‘ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-fevral

Info

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **6,2** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2021- yil
yanvar-fevral**

**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

**2022- yil
yanvar-fevral**



2022- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,3** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,4** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1420,0	118,6	107,0
Nukus sh.	579,2	113,6	113,8
tumanlar:			
Amudaryo	72,0	107,2	106,6
Beruniy	77,0	106,1	106,9
Bo‘zatov	6,1	112,1	114,9
Qorao‘zak	22,1	113,2	104,5
Kegeyli	23,2	114,7	109,0
Qo‘ng‘irot	238,4	179,9	90,1
Qonliko‘l	20,1	112,2	102,6
Mo‘ynoq	12,6	115,9	104,9
Nukus t.	22,6	111,5	108,0
Taxiatosh	27,7	109,0	100,5
Taxtako‘pir	16,3	112,0	104,8
To‘rtko‘l	121,9	108,2	107,2
Xo‘jayli	57,6	106,0	104,6
Chimboy	39,5	110,7	105,0
Shumanay	17,9	107,3	105,3
Ellikqal‘a	65,8	107,0	106,8

Dastlabki ma’lumotlar


2022- yil yanvar-fevral

Info

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-fevral oylarida)

2022- yil yanvar-fevral oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Nukus shahrida – **40,8 %** (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – **43,5 %**).



Xizmatlar sohasining eng past ko‘rsatkichlari Bo‘zatov tumanida – **0,4 %** (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – **0,5 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

733,4
ming so'm

Hajmning o'sishi

140,4
ming so'mga

2022- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **733,4** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **593,0** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,5 %** da qayd etilgan.

117,1 %

O'sish sur'ati

